ISSN: 3060-4761
TerDPI ILMIY XABARNOMASI / SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI / НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA

UDK: 37.153

KARIMOVA E'ZOZXON GAPIRJANOVNA
Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti mustaqil izlanuvchisi, sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent.

RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING TOLERANTLIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

ANNOTATSIYA. Maqolada raqamli ta'lim muhiti sharoitida bo'lajak o'qituvchilarda tolerantlik kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi usullar ilmiy asoslab beriladi. Tadqiqotda raqamli kollaborativ platformalar, multimodal topshiriqlar, refleksiv faoliyat hamda madaniyatlararo muloqot simulyatsiyalari tolerantlikni shakllantirishda muhim omil ekanligi tajriba-sinov asosida isbotlangan. Olingan natijalar raqamli ta'lim vositalari orqali empatiya, ochiq fikrlilik, madaniyatlararo hurmat va murosali muloqot ko'nikmalari sezilarli darajada rivojlanishini ko'rsatadi.

KALIT SO'ZLAR: *tolerantlik kompetensiyasi, raqamli ta'lim muhiti, bo'lajak o'qituvchi, multimodallik, madaniyatlararo muloqot, refleksiya, kollaboratsiya.*

МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ КОМПЕТЕНЦИИ В ОБЛАСТИ ТОЛЕРАНТНОСТИ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ В ЦИФРОВОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ

АННОТАЦИЯ. В статье научно обоснованы приёмы развития толерантностной компетенции у будущих учителей в условиях цифровой образовательной среды. Экспериментально доказано, что цифровые коллаборативные платформы, мультимодальные задания, рефлексивная деятельность и симуляции межкультурной коммуникации способствуют развитию толерантности. Результаты показали значительный рост эмпатии, открытости мышления и навыков межкультурного общения.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: *толерантностная компетенция, цифровая образовательная среда, будущий учитель, мультимодальность, межкультурная коммуникация, рефлексия, коллаборация.*

METHODS OF DEVELOPING TOLERANCE COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS IN DIGITAL EDUCATIONAL ENVIRONMENT

ABSTRACT. This article scientifically substantiates metods for developing tolerance competence in pre-service teachers within a digital learning environment. The study experimentally proves that digital collaborative platforms, multimodal tasks, reflective activities, and intercultural communication simulations significantly contribute to tolerance development. The findings show notable improvement in empathy, open-mindedness, and intercultural communication skills through digital learning tools.

KEYWORDS: *tolerance competence, digital learning environment, pre-service teacher, multimodality, intercultural communication, reflection, collaboration.*

ISSN: 3060-4761
TerDPI ILMIY XABARNOMASI / SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI / НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

KIRISH. Zamonaviy ta'lim tizimi raqamli transformatsiya jarayonini boshdan kechirmoqda. Raqamli platformalar, onlayn hamkorlik, multimodal kontent va virtual kommunikatsiya ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Bunday sharoitda o'qituvchidan nafaqat kasbiy bilim, balki yuqori darajadagi ijtimoiy-axloqiy kompetensiyalar, xususan tolerantlik kompetensiyasi talab etiladi.

UNESCO tolerantlikni insonlar o'rtasidagi farqlarga hurmat, qabul qilish va tushunish madaniyati sifatida talqin etadi[1]. Ayniqsa, bo'lajak o'qituvchilar turli ijtimoiy, madaniy va individual xususiyatlarga ega bo'lgan o'quvchilar bilan ishlashi sababli tolerantlik ularning kasbiy sifatiga aylanadi.

Mayerning multimodal o'qitish nazariyasi, Papertning konstruktsionizmi va Mishra hamda Koehlerning TPACK modeli raqamli ta'lim muhitida shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish imkoniyatlarini ko'rsatadi[2]. Shu nuqtai nazardan, mazkur tadqiqot raqamli pedagogik vositalar orqali tolerantlikni rivojlantirish mexanizmlarini aniqlashga qaratilgan.

Tadqiqot maqsadi — raqamli ta'lim muhiti sharoitida bo'lajak o'qituvchilarda tolerantlik kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik mexanizmlarni aniqlash va asoslash.

METODOLOGIYA. Tadqiqotda bir qancha metodlardan foydalanildi.

1. Nazariy manbalar tahlili-mazkur tadqiqotda nazariy manbalar tahlili tolerantlik kompetensiyasi, raqamli pedagogika, multimodallik va madaniyatlararo muloqot nazariyalarini o'rganishga qaratildi. Tahlil quyidagi yo'nalishlarda olib borildi:

— UNESCO tolerantlik talqini va global kompetensiyalar modeli;

— Mayerning multimodal o'qitish nazariyasi (Multimedia Learning)[3];

— Papertning konstruktsionizmi;

— Banks va Byramning madaniyatlararo ta'lim konsepsiyalari;

— raqamli ta'lim muhitida kollaborativ o'qitish yondashuvlari.

1.Nazariy tahlil asosida shunday xulosa qilindiki, tolerantlik kompetensiyasi an'anaviy o'qitishdan ko'ra raqamli, interaktiv muhitda samaraliroq rivojlanadi. Shu asosda tadqiqotning pedagogik mexanizmlari konseptual jihatdan belgilab olindi.

2.Pedagogik kuzatuv. Pedagogik kuzatuv jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning raqamli muhitdagi xulq-atvori, muloqot madaniyati va hamkorlik faoliyati tizimli ravishda kuzatildi.

Kuzatuv quyidagi vaziyatlarda olib borildi:

— onlayn guruhiy loyiha ishlari jarayonida;

— Padlet va Miro platformalaridagi hamkorlik faoliyatida;

— multimodal topshiriqlarni bajarish jarayonida;

— virtual muhokama va fikr almashish jarayonida.

Kuzatuv mezonlari:

— o'zgacha fikrga munosabat;

— guruhdagi muloqot etikasi;

— konfliktli vaziyatlarda reaksiyalar;

— o'z fikrini ifodalash madaniyati.

Bu metod tolerantlikning amaliy namoyon bo'lish holatlarini aniqlashga yordam berdi.

3. So'rovnoma va diagnostika. Tadqiqotda tolerantlik kompetensiyasini o'lchash uchun maxsus diagnostik vositalar ishlab chiqildi. Diagnostika quyidagi indikatorlar asosida tuzildi[4]:

1.Empatiya darajasi.

2.Ochiq fikrlilik.

3.Madaniyatlararo hurmat.

4.Murosali muloqot qobiliyati.

So'rovnoma Google Forms orqali o'tkazildi va Likert shkalasi asosida baholandi. Shuningdek, talabalarga refleksiv savollar berildi:

— Siz o'zgacha fikrga qanday munosabat bildirasiz?

— raqamli muhitda kelib chiqqan bahsli vaziyatni qanday hal qilasiz?

Bu metod tolerantlikning ichki (psixologik) holatini aniqlash imkonini berdi.

4. Tajriba-sinov ishlari. Tajriba-sinov ishlari 2 guruhda olib borildi: nazorat va tajriba. Tajriba guruhida quyidagi usullar qo'llanildi:

— multimodal topshiriqlar (video, podkast, vizual hikoya);

— raqamli kollaboratsiya (Padlet, Miro);

— madaniyatlararo vaziyatli rolli o'yinlar;

— refleksiv blog yuritish.

Nazorat guruhida esa, an'anaviy ma'ruza va seminar qo'llanildi. Tajriba 8 hafta davom etdi.

5. Sifat va miqdoriy tahlil. Olingan natijalar ikki yo'nalishda tahlil qilindi:

Miqdoriy tahlil:

— so'rovnoma natijalari foiz ko'rsatkichlarida taqqoslandi;

— tajriba boshidagi va oxiridagi ko'rsatkichlar solishtirildi.

Sifat tahlili:

— talabalarning refleksiv yozuvlari tahlil qilindi;

— onlayn muloqot yozishmalari o'rganildi;

— guruhiy faoliyat jarayonidagi xatti-harakatlar tahlil qilindi.

Natijalar tolerantlik kompetensiyasining sezilarli o'sishini ko'rsatdi.

Mazkur metodlar majmuasi tolerantlik kompetensiyasini nafaqat nazariy, balki amaliy, diagnostik va tajribaviy jihatdan to'liq o'rganish imkonini berdi. Ayniqsa, raqamli muhit usullarining samaradorligini yaqqol namoyon qildi.

Natijalar. Tajriba-sinov ishlari 8 hafta davomida olib borildi. Tajriba guruhida multimodal topshiriqlar, raqamli kollaborativ platformalar (Padlet, Miro), madaniyatlararo simulyatsiyalar va refleksiv blog faoliyati tizimli ravishda qo'llanildi[5]. Nazorat guruhida esa an'anaviy ma'ruza-seminar usullari davom ettirildi.

Tolerantlik kompetensiyasi 4 ta asosiy indikator asosida baholandi:

— empatiya darajasi;
— madaniyatlararo hurmat;
— murosali muloqot qobiliyati;
— ochiq fikrlilik.

Har bir indikator 10 ta savoldan iborat Likert shkalali so'rovnoma, pedagogik kuzatuv varaqasi va refleksiv yozuvlar tahlili orqali o'lchandi.

Empatiya: 48% → 81% dastlabki diagnostikada talabalar ko'proq o'z nuqtai nazarini ustun qo'yishi, boshqalar hissiyotini tushunishga kam e'tibor qaratishi kuzatildi. Multimodal topshiriqlar (vizual hikoya, podkast, video esse) jarayonida talabalar turli ijtimoiy vaziyatlarni obraz orqali ifodalashdi[6]. Bu jarayonda ular boshqalar pozitsiyasiga kirishga majbur bo'ldilar.

Refleksiv bloglarda quyidagi mazmundagi fikrlar ko'paydi: "Vaziyatni boshqa odam ko'zi bilan ko'rishga harakat qildim". Bu empatiyaning amaliy shakllanishini ko'rsatdi.

Madaniyatlararohurmat:52%→86%.Madaniyatlararo simulyatsiya mashg'ulotlarida talabalarga turli millat, qarash va qadriyatlarga ega rollar berildi.

Kuzatuv jarayonida: bahslar kamaygani, qarama-qarshi fikrlar hurmat bilan tinglanganligi; "to'g'ri/noto'g'ri" o'rniga "boshqacha qarash" iborasi ishlatilgani qayd etildi. Bu o'zgarishlar tolerantlikning madaniyatlararo komponenti rivojlanganini ko'rsatdi.

Murosali muloqot: 44% → 79%. Dastlab talabalar onlayn guruh ishlarida fikrlar to'qnashganda keskin munosabat bildirgan. Miro va Padlet platformalaridagi kollaborativ loyiha ishlari jarayonida esa:

— kelishuvga erishish;
— vazifalarni bo'lishish;
— qarorlarni birgalikda qabul qilish ko'nikmalari shakllandi.

Pedagogik kuzatuv varaqalarida konfliktli vaziyatlar soni kamaygani qayd etildi.

Ochiq fikrlilik: 50% → 88%. Refleksiv yozuvlar tahlilida dastlab talabalarda qat'iy, o'zgarmas fikrlar ustun bo'lgan. Tajriba yakunida esa talabalar o'z fikrini qayta ko'rib chiqish, boshqalarning fikrini inobatga olishga moyillik bildirgan. Bu ayniqsa blog yozuvlarida yaqqol ko'rindi: "Oldin bu masalaga boshqacha qarar edim, endi fikrim o'zgardi".

Miqdoriy va sifat tahlilining uyg'unligi. Miqdoriy natijalar (foizlar) so'rovnoma asosida olindi. Sifat tahlili esa:

— refleksiv bloglar;
— onlayn yozishmalar;
— pedagogik kuzatuv asosida tasdiqlandi.

Bu esa, natijalarning ishonchliligini oshirdi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, tolerantlik kompetensiyasi ma'ruza orqali emas, balki raqamli, kollaborativ va refleksiv pedagogik faoliyat orqali samarali rivojlanadi. Aynan shu pedagogik mexanizmlar tolerantlikning barcha komponentlariga bir vaqtda ta'sir ko'rsatdi.

MUHOKAMA. Tadqiqot natijalari tolerantlik kompetensiyasining shakllanishi axborotni qabul qilish jarayonidan ko'ra, ijtimoiy-pedagogik faoliyat jarayonida yuz berishini ko'rsatdi. An'anaviy ma'ruza shakli talabani tinglovchi pozitsiyasida qoldiradi va tolerantlikka xos bo'lgan empatiya, ochiq fikrlilik hamda murosali muloqot kabi sifatlarni faollashtirmaydi[7]. Aksincha, raqamli ta'lim muhiti sharoitida tashkil etilgan hamkorlikka asoslangan, multimodal va refleksiv faoliyat talabani faol ishtirokchiga aylantiradi.

Hamkorlikka asoslangan faoliyat jarayonida talabalar bir vazifani birgalikda bajarish, qarorlarni kelishuv asosida qabul qilish va fikrlar xilma-xilligini hisobga olishga majbur bo'ladilar. Bu jarayon tolerantlikning tashqi namoyon bo'lish shakllarini — tinglash, murosa qilish, boshqacha fikrni inkor etmaslik kabi ko'nikmalarni tabiiy ravishda shakllantiradi. Demak, tolerantlik bu yerda nazariy tushuncha emas, balki faoliyat ehtiyojiga aylanadi.

Multimodal ifoda esa tolerantlikning ichki — psixologik komponentlariga ta'sir ko'rsatadi. Talaba fikrini matn, tasvir, ovoz va video orqali ifodalash jarayonida voqelikni turli nuqtai nazardan ko'rishga o'rganadi[8]. Bunday ko'pkanalli idrok etish jarayoni biryoqlama fikrlashni kamaytiradi va empatiya mexanizmini faollashtiradi. Natijada, talaba boshqalarning pozitsiyasini tushunishga intiladi.

Refleksiv yozuv tolerantlikning anglangan shaklini yuzaga chiqaradi[9]. Talaba o'z tajribasini yozma ravishda tahlil qilganda, u nafaqat nima qilganini, balki nima uchun shunday munosabat bildirganini anglay boshlaydi. Bu jarayon shaxsiy qarashlarni qayta ko'rib chiqish va o'z fikriga tanqidiy yondashish imkonini beradi. O'z fikrini qayta baholay olish esa ochiq fikrlilikning muhim belgisi hisoblanadi.

Madaniyatlararo simulyatsiya mashg'ulotlari tolerantlikning ijtimoiy-madaniy komponentini rivojlantirdi. Turli rollarni bajarish orqali talabalar boshqa madaniy va ijtimoiy pozitsiyalarni "his qilish" tajribasini boshdan kechirdilar. Bu esa hurmat va qabul qilish munosabatini shakllantirdi.

Tadqiqot jarayonida kuzatildiki, aynan raqamli vositalar ushbu faoliyat turlarini yagona muhitda uyg'unlashtirish imkonini berdi. Raqamli platformalar

erkin fikr almashish, yozib qoldirish, qayta ko'rib chiqish va birgalikda ishlash imkoniyatini yaratib, tolerantlik rivojlanishi uchun qulay pedagogik sharoit hosil qildi.

Shunday qilib, tolerantlik kompetensiyasi bilim berish orqali emas, balki tajriba, hamkorlik, ifoda va refleksiya jarayonida shakllanishi ilmiy jihatdan asoslandi. Raqamli ta'lim muhiti esa ushbu jarayonlarni tizimli va samarali tashkil etish imkonini beruvchi pedagogik makon sifatida namoyon bo'ldi.

XULOSA. Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, raqamli ta'lim muhiti bo'lajak o'qituvchilarda tolerantlik kompetensiyasini rivojlantirish uchun nafaqat qulay, balki metodik jihatdan samarali pedagogik maydon vazifasini bajaradi. Raqamli muhit talabaning faqat bilim oluvchi emas, balki faol ishtirokchi, hamkor va fikr bildiruvchi subyekt sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Aynan shu faol pozitsiya tolerantlik kompetensiyasining rivojlanishida hal qiluvchi omil bo'lib chiqdi.

Tadqiqot davomida qo'llanilgan multimodal topshiriqlar talabalarda voqelikni turli nuqtai nazardan idrok etish, boshqalarning hissiyotini tushunish va empatiya ko'rsatish qobiliyatini kuchaytirdi. Kollaborativ faoliyat esa murosali muloqot, fikrlar xilma-xilligini qabul qilish va kelishuv asosida qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirdi. Refleksiv yozuvlar talabalarga o'z qarashlarini tahlil qilish, ularni qayta ko'rib chiqish va ochiq fikrlilikni rivojlantirish imkonini berdi.

Madaniyatlararo simulyatsiyalar esa hurmat, qabul qilish va madaniy xilma-xillikka ijobiy munosabatni mustahkamladi. Shu jihatdan, tolerantlik kompetensiyasi nazariy tushuntirish yoki ma'ruza orqali emas, balki tajribaviy, interaktiv va refleksiv pedagogik faoliyat jarayonida shakllanishi ilmiy jihatdan asoslandi. Raqamli platformalar ushbu faoliyatlarni yagona tizimga keltirib, talabalarning o'zaro muloqoti va hamkorligini ta'minladi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli ta'lim muhiti sharoitida multimodallik, kollaboratsiya, refleksiya va madaniyatlararo tajriba tolerantlik kompetensiyasini rivojlantiruvchi asosiy usullar sifatida namoyon bo'ldi. Ushbu usullarni tizimli qo'llash bo'lajak o'qituvchilarning tolerantlik kompetensiyalarini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1.Banks J.A. Cultural diversity and education: Foundations, curriculum, and teaching. — New York: Routledge, 2015. — 328 p.
2.Mishra P., Koehler M.J. Technological pedagogical content knowledge: A framework for teacher knowledge // Teachers College Record. — 2006. — Vol.108, №6. — P.1017–1054.
3.Mayer R.E. Multimedia learning. — Cambridge: Cambridge University Press, 2009. — 304 p.
4.Byram M. Teaching and assessing intercultural communicative competence. — Clevedon: Multilingual Matters, 1997. — 124 p.
5.Dewey J. Experience and education. — New York: Macmillan, 1938. — 116 p.
6.Kress G. Multimodality: A social semiotic approach to contemporary communication. — London: Routledge, 2010. — 212 p.
7.OECD. Preparing our youth for an inclusive and sustainable world: The OECD global competence framework. — Paris: OECD Publishing, 2018. — 60 p.
8.Papert S. Constructionism. — Norwood: Ablex Publishing, 1991. — 247 p.
9.UNESCO. Declaration of principles on tolerance. — Paris: UNESCO Publishing, 1995. — 12 p.